



УО'К: 821.512.133

**“MEHROBDAN CHAYON” VA “TANAZZUL” ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA  
BADIY TO’QIMA UYG‘UNLIGI**

**ГАРМОНИЯ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПРАВДЫ И ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТИЛЯ В  
РОМАНАХ «МЕХРОБДАН ЧАЯН» И «ТАНАЗУЛ»**

**THE HARMONY OF HISTORICAL TRUTH AND ARTISTIC TEXTILE IN THE NOVELS  
“THE SCORPION FROM THE ALTAR” AND “DECLINE”**

Uktamovna Dilnoza Mamanova 

Samarqand davlat tibbiyot universiteti o‘zbek tili fani o‘qituvchisi

*Annotatsiya*

*Ushbu maqolada Sadixon Mavlavixon o‘g‘li “Tanazzul” pentalogiyasi va Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidagi voqealar rivoji va mutanosib obrazlar tizimi uyg‘unligi masalasi o‘rganilgan. Shuningdek, ushu tahsil shu davrga oid tarixiy-ilmiy ishlar va asarlarga asoslanadi. Ya’ni ikki romanda ham bir davr voqealari yoritilganligi sababli ikki asar o‘rtasidagi o‘xhashliklar qiyosiy tahlil qilingan. Shuningdek, bu jihat adabiyot va tarix uchun moslik darajasi, tarixiy haqiqat va badiy to’qima tomonidan mutanosibligi ham tekshirilgan. Ikki asardagi obrazlar va ularning xarakter-xususiyatidagi o‘xhashlik va noo‘xhashlik parallel shaklda tahlil qilingan.*

*Аннотация*

В данной статье рассматривается развитие событий, гармония системы пропорциональных образов в пенталогии «Таназзул» сына Садикхана Мавлавихана и в романе «Скорпион от алтаря» Абдуллы Кадири. Также данный анализ основан на историко-научных трудах и произведениях этого периода. Иными словами, поскольку оба романа охватывают события одного и того же периода, был проведен сравнительный анализ сходства двух произведений. Проверялась также степень совместимости этого аспекта с литературой и историей, соразмерность исторической правды и художественной выдумки. Параллельно анализируются сходство и несходство образов в двух произведениях, их характеристики.

*Abstract*

*This article examines the development of events, the harmony of the system of proportional images in the pentalogy "Decline" by the son of Sadikhan Mavlavikhan and the novel "Scorpion from the Altar" by Abdulla Qadiri. Also, this analysis is based on historical-scientific works and works of this period. In other words, since the events of the same period are covered in both novels, the similarities between the two works were comparatively analyzed. Also, the level of compatibility of this aspect with literature and history, the proportionality of historical truth and artistic fabric was also checked. Similarity and dissimilarity of images in two works, their characteristics are analyzed in parallel.*

**Kalit so‘zlar:** pentalogiya, tarixiy badiiy asar, badiiy to’qima, asarlar o‘rtasidagi o‘xhashlik, “Tanazzul” romani, “Mehrobdan chayon” romani, xarakter, harakatlanuvchi obraz, mualifining g’oya va maqsadi, badiiy maqsad, voqealar rivoji, tarixiy-faktik asar, obrazlararo uyg‘unlik.

**Ключевые слова:** пентология, историческое произведение искусства, сходство произведений, роман «Таназзул», роман «Скорпион с алтаря», персонаж, впечатляющий образ, авторская идея и цель, художественная цель, развитие событий, историко-фактическое произведение, согласованность между изображениями.

**Key words:** pentalogy, historical work of art, artistic texture, similarity between works, decline, character, moving image, author’s idea and purpose, artistic purpose, development of events, historical-factual work, inter-imagery harmony.

**KIRISH**

Qo‘qon xonligi tarixi haqida yozilgan Sa’dixon Mavlavixon o‘g‘lining “Tanazzul” roman-pentalogiyasi tarixiy haqiqat va badiy to’qima mutanosibligida yozilgan bo‘lib, albatta, bu davr yoritilgan undan oldingi tarixiy-faktik asarlar va materiallar hamda badiiy, ilmiy asarlar yozuvchi tomonidan puxta o‘rganilgan. Xususan, badiiy asarlar jihatidan olib qaraydigan bo‘lsak, Abdulla Qodiriyning “O’tgan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari bilan “Tanazzul” romani o‘rtasida ham uzviy bog‘liqlik mavjud. Buni roman obrazlar tizimi, voqealar rivoji, detallar xarakteristikasi,

xatlar tasviri, tarixiy muhit va jarayonlar negizida ko'rish mumkin. Shu nuqtayi nazardan pentologiya va "Mehrobdan chayon" romanidagi ba'zi xususiyatlarini tahlil qilamiz.

### **ADBIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI**

Umuman olganda, tarixiy badiiy asarlarda aks etgan davr, obrazlar, voqealar rivoji, fakt va hatto ba'zi to'qimalar obrazlar ham bir xil yoki o'xshash bo'lsa yozuvchidan katta mahorat, bilim va ijodkorlik talab etadi va bu birinchi yaratilgan asarga nisbatan ikkinchi va undan keyingi asarlarni yozish birmuncha murakkablik tug'dirishi tabiiydir. Negaki, yozuvchi undan oldingi badiiy asarni to'liq o'rgangan holda undan o'z xulosasini chiqarishi va tarixiy-badiiy asarga monand yangi bir asar yaratishi kerak bo'ladi. Tadqiq qilayotganimiz "Tanazzul" pentalogiyasi ham xuddi shunday xarakterga ega roman hisoblanadi. Qodiriyning Qo'qon xonligi yoritilgan ikki romanidan ilhomlanib yozilgan bo'lib, uni mantiqiy davom ettirib tarixiy voqealarga u asarlarga nisbatan bunda ko'proq e'tibor qaratilgan. Negaki pentologiyadagi asosiy voqealar rivoji Qo'qon xonlaridan biri Xudoyorxon va uning hukmronlik davrini qamrab olgan. Qodiriyning "Mehrobdan chayon" va "Tanazzul" romanlari o'rtasidagi bo'g'liqlikni qiyosiy tahlili etar ekanmiz ularda o'zaro mutanosiblikni ko'rishimiz mumkin. Buni tarixiy jarayon aks etgan hollarda hamda badiiy to'qimalar rivojida shuningdek asar tilida kuzatishimiz mumkin.

"Mehrobdan chayon" romanining mavzusi to'g'risida Qodiriyning o'zi "Turkiston feodallarining keying vakili bo'lgan Xudoyorxonning o'z xohishi yo'lida dehqon ommasi va mayda hunarmand – kosib sinfini qurbon qilishi, mamlakat xotin-qizlarini istagancha tasarruf etishi, bunga qarshi kelguchilar tilasa kim bo'imasin, rahmsiz jazo berishi ro'manning mavzuidir.

...Albatta, men bu so'ng'i marg'ub qahramonlarni o'zbek tarixining hazmi ko'targan qadar o'z holicha olishga tirishdim. Ularning xon va ulamoga qarshi isyoni tabiiy – shar'iydir." [1, 3] deb keltiradi. Ya'ni bu romanda asosan xotin-qizlar erki va Xudoyorxonning kanizakbozligiga urg'u berilgan. Xuddi shu jihatni "Tanazzul" bilan solishtirganimizda esa Xudoyorxonning ayollaridan Musulmonql mingboshining qizi Qozoqoyim, tojik Shabnamoyim va yana ikkita xotini asarda keltiriladi. Haramxona haqida gap ketganda Hokimoyim asosiy harakatlantiruvchi obraz hisoblanib u orqali xonning xotinlari, kanizaklar sujetda olib berilgan. Xudoyorxonning onasi – "*Hokimoyim - Jorqinoy Talas qirg'izlarining biyi, To'xtanazarbiy do'nanning kenja qiz. Sheralixonning katta xotini. Oqishdan kelgan, yoshi qirqlarda bo'lsa ham qomatini yo'qotmagan, aqli tabiatan vazmin, o'ta mehribon. Kundoshi Sunaoyim zotijam kasali bilan qazo qilganda yetim qolgan bolalarini o'z bolasiday mehr bilan tarbiyalab katta qildi.*" Xudoyorxon ham onasidan maslahat olib ish ko'rар, Hokimoyim esa siyosiy ishlarda Umarali pansod va Bahodir shirg'ovul bilan kengashgan holda ish qiluvchi, vaziyatga to'g'ri baho beruvchi va uni oldindan ko'ra oluvchi obraz sifatida asarda barcha farzandlariga jonkuyar ona sifatida gavdalantirilgan.

"Mehrobdan chayon" da "...o'ttiz besh yoshlar chamaliq bu xonim – xonning mu'tamad xotini Og'achaoyim va shahzoda esa xonning suyukli o'g'li – O'rmonbek edi. Xudoyorxonning xotinlaridan kichik Shoh oyim..." deb boshqa xotinlarining nomi keltiriladi. Lekin ikki asarda ularning ismlari har xil bo'lib sujet chizig'i ham takrorlanmagan. Tarixdan Xudoyorxonning xotinlari ko'p bo'lgani haqida ma'lumotlar bor. Buni Qodiriylasida "Agar kanizaklarni ham qo'shib hisoblasa, kundashlarning sanog'i bir yuzdan ortadir." [1,122] deb keltiriladi. Tadqiq etayotgan romanda esa u haqida to'xtalmagan. Bundan yozuvchi Xudoyorxon shaxsiyatini ko'rsatmagan holda bu obrazga ijobiylik berishga harakat qilgan degan xulosaga kelishimiz mumkin. Negaki avlodlar o'z tarixiy shaxslari, xonlarini ijobiy xarakter jihatidan bilishi va o'rganishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ushbu pentologiya badiiyati tarixiy haqiqat va badiiy to'qima bilan yo'g'rilgan bo'lib, albatta, yozuvchi g'oyasi va ideali mahsulidir.

Tarixiy asarlarda bo'lgani kabi yozishmalar – xatlar tasviri ikki asarda ham keltirilgan bo'lib, "Mehrobdan chayon" romanida quyidagicha Xudoyorxon nomidan yorlig' keltiriladi: "Anvarga xon tomonidan quyidagi yorliq e'lon qilindi. "Ba ismi subhanollohu amrullohi farizatun va amruna vojib. Bizkim, Farg'ona mamlakatining xoqoni sulton ibni sulton a'ni Sayyid Xudoyorxon so'zimiz: Julusi solisamizning uchunchi sanasi mutobiqi 1287inchи hijriya mohi safarning 25inchisi ushbu yorlig'imizni berdik xo'qandlik mulla mirzo Anvar'akim, mazkur mulla mirzo Anvar ibnni Salimboy sha'ri sharif uzra ustivor sadri munshiylilik umuri vazoyifalarimizni kama yanbag'i ado qilg'ay deb..." kabi lavozimga tayinlangandagi tasvir bilan "Tanazzul" romanida ham: "Huwallaziy arsalara

## ILMIY AXBOROT

*rasullahubil xudo Bizzim, Farg'ona mamlakatining xoqoni sulton ibn Sulton Bahodir Sayyid Shohmurodxon ibn Sarimsoqbek so'zimiz:...*" kabi xatlar boshining keltirilishi bir-biriga o'xshashdir.

"Tanazzul"da yana bir Muhammad Rajab munshiy obrazi xonning hujjat ishlari bilan shug'ullanuvchi kishisi bo'lib, farmon, buyruq, xat, yorlig', e'lolar bilan shug'ullanadi. Bu obraz xuddi shu tarzda "Mehrobdan chayon"da Anvarning yoshlikdagi do'sti, kasallik tufayli vafot etgan Nasimning otasi Muhammad Rajab poygachi obrazi bilan bitta obraz hisoblanadi. "Nasimning otasi Qo'qonningg'ina emas, butun xonliqning tanilg'an kishilaridan va bu ikki bolaning sinfiy ayirmaliquari yer bilan ko'kcha, lekin yosh do'stlar buning farqiga yetmaslar, Nasim "xonning mirzaboshisining o'g'liman" deb havolanmag'anidek, Anvar ham "Salim bo'yoqchining yetimi, Solih Mahdumning asrandisiman." [1, 48] deb andisha qilmas edi. Bu o'rinda ham asarlar personajlari o'tasida mantiqiy mutanosiblik va obrazlararo uyg'unlikni uchratishimiz mumkin.

Xalq boshiga haddan tashqari ko'p miqdorda soliqlar solish haqida esa Qodiriyl romanida Anvar mirzolikning ikkinchi yilida soliqlardan ozod etish qog'ozini oladi. "Soliqlardan darxonliq Maxdumning ro'zg'origa katta yengillik edi. Chunki so'nggi yillarda xonliq tomonidan xalq ustiga tushkan va tushib turg'an soliqlar behad va to'lab bo'lmashiq edikim..." kabi keltiriladi. "Tanazzul"da esa bunga kam to'xtalgan. Unda ham qo'rg'on boshliqlari va Toshkentga tayinlangan Aziz qipchoq tomonidan chiqarilgan soliqlar ma'lum o'rinnardagina keltirilgan. Tarixiy asarlardan birida esa M.A.Terentev ham "...yana yangi soliqlar o'ylab topildi: ekilgan barcha mevasiz daraxtlarga, ko'mirga, tog'dagi son-sanoqsiz yondirib yuborilgan burganlarga, yoqilg'i uchun yig'ib olingan shox-shabbalarga...cheq olindi (2 tiyin) ....fuqoroning bor-yo'g'ini shilib, talab yig'ishtirib olish ular noroziligining bitmas-tugammas manbai bo'ldi." [2, 56] deya keltirilib tadqiq etayotgan romanimizda yana bir marta Xudoyorxon obraziga ijobjiy yondashilgan degan hukm chiqarishimizga uning mazmun-mohiyati sabab bo'lmuoqda.

Xudoyorxon xarakterini Anvarning xon oldiga do'st Sultonalini qutqarish uchun kelganidagi suhbat jarayonida Qodiriyl ochib bergan: "Taxtda takya qilg'an Xudoyor ikki ko'zi to'g'risig'a ikki jallodni qo'yib, yonidagi domla shirg'ovul, Tursun otaliq va g'ayri bir necha a'yonlar bilan suhbatlashar edi.

- Pushti panoh! – dedi hudaychi, - xiyonatkor o'z ixtiyoril bilan kelib domi adolatingizga taslim bo'lmuoqchi!

- Xiyonatkaring kim?
- Mirzo Anvar!
- Xon seskanib ketdi, hamnishinlar hamalong'-jalong' bo'ldilar.
- Keltir!
- Hudaychi qulluq qilib, orqasig'a qaytdi. Dahlizdagli Anvar birinchi xonadagi a'yonni hayratga solib, ikkinchi tanobiyning bo'sag'asida, jallodlar o'tasida to'xtadi va xong'a ta'zim ado qildi.

Raqibni bu qadar jasoratda ko'rgan Xudoyorxonning kiprik ostlari uchib, soqol tuklari silkindi va biroz so'z topolmag'andek tamshanib turdi.

- Sen bizga xiyonat qilding, it uvli!

Anvar bosh irg'atdi.

- Iqrorman.
- Tuzimni unutding'!
- Tonmayman.

- Iqrorsen, tonmaysen, o'bdan ish! – dedi zaharkanda qilib xon, - o'luvdanda qaytmaysen!" deb xonning xarakterini ochib bergan. Ya'ni seskanib ketdi, Xonning kiprik ostlari uchib, soqol tuklari silkindi, biror so'z topolmag'andek tamshanib turdi kabi jumlalarda o'ziningadolatsiz ish qilganini sezib, cho'chiyotgani xarakter xususiyatidan anglashilmoqda. Shu bilan birga shoh o'zi qilgan ishlariga o'zi to'g'ri baho berib mulohaza qila oladi, a'yonlarga bo'ysinuchi "qo'g'irchoq" xon emasligini ko'rsatib bergan.

Shuningdek, - Pusulmonchiliq qilg'ansan-da?

- Albatta, - dedi Anvar, - boshqalar kishi gunohi uchun gunohsizni tutib pusulmonchiliqdan chiqqach, men pusulmonliq bilan o'lishni o'bdan bildim.

Bu javob Xudoyorni qip-qizil tuska qo'yib, manglayida terlar ko'rindi, G'azab o'ti alanga oldi.

- Sening qig'an ishing pusulmonchiliqda bormi, it uvli?

- Musulmonchiliqda yuzlab xotin ustiga, bir kambag' al uylanmakchi bo'lg'an qizg'a ham zo'rliq qilish bormi, qiblayi olam.

- Chiqar buni jallod!

Jallodlar harakatlandi." [3, 263] Bu suhbat jarayonida ham xon qilgan xatosini bilib turibdi lekin mamlakat xoni va hukmronligi ostida hamma narsaga qodir ekanlik tushunchasi va hissi ham bor. Shu sababdan u xonligini qiladi ya'ni qo'l ostidagi oddiy ishchisidan uzr so'ramaydi yoki xatosini baralla tan ola olmaydi. Lekin qilgan yoki qiladigan ishining qay darjada ekanligini sezib turadi. Bu yerda asrlar osha hukmdorlardan hukmdorlarga o'tib kelgan an'anaviy tamoyil mavjud.

### NATIJA VA MUHOKAMA

Ikki asardagi bu xildagi obrazlar jarayoni va voqealar rivojidagi mutanosiblik va nomutanosiblik badiiyilik undan ko'zlangan maqsad, g'oyaga bog'liqdir. Asarlardagi o'xshashliklar esa ikki asarda ham bir davr voqealari shaxslari va muhiti aks etgan. Nomutasosiblikka keladigan bo'lsak birinchidan ikki romanning yozilish davri ikki xildir. Ya'ni "Mehrobdan chayon" 1928-yilda yozilgan bo'lib, o'sha davr ruhi ham keltirilgan. "Tanazzul" esa 2019-yilda yaratilgan mustaqillik yillardagi zamonaviy adabiyotimizning tarixiy mavzudagi romani hisoblanadi. Bundan kelib chiqib zamon-makon tushunchasi ham voqealar rivoji, obrazlar tasvirida va boshqa o'rnlarda muhim ahamiyat kasb etadi. Ikkinchidan, yozuvchining g'oyaviy badiiy maqsadi davni qay jihatdan ko'rsatishiga hamda yozuvchilarning yashagan davriga aloqadordir. Chunki har bir yozuvchi o'zi yashayotgan davr va zamon kishisi hisoblanib, shu nuqtai nazardan asarga yondashadi. Hatto u tarixiy badiiy yoki tarixiy ilmiy asar bo'lsa ham. Bu jarayonlar esa keying tadqiqotlarimizning asosi bo'ladi.

### XULOSA

Qodiriylar tarixiy romanlari orqali tarixni aks ettirgan holda xalqni uyg'otishga, erkka, kishilar mustaqilligi va o'z hayotiga egalik qilishga da'vat qilgani sezilib turadi. "Tanazzul"da esa Qo'qon xonligi va Xudoyorxon davr haqida hikoya qilib, tarixni ijobjiy bo'yoqlarda ko'rsatishga urinish tarixdan hikoya qilish asosiy o'rinda turadi. Shunday ekan, har qanday tarixiy badiiy asar yaratilar ekan, yozuvchi tarixiy haqiqatga moslashtirish uchun tarixiy fakt va manbalardan asos sifatida foydalanadi. Badiyiligini oshirish uchun esa shu davr aks ettirilgan badiiy asarlarga murojaat etadi. Ushbu "Tanazzul" pentalogiyasida ham roman yozuvchisi Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon", "O'tkan kunlar" romanlaridagi voqealari, obrazlarni o'z asariga ko'chirgani sezilib turibdi. Ya'ni yozuvchi o'z asari uchun ularidan samarali foydalana olgan va bu yozuvchining mahorati va yutug'ini tashkil etadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdulla Qodiri. Mehrobdan chayon. – Toshkent: Yangi nashr 2019.
2. Sa'dixon Mavlavixon o'g'li. Tanazzul.1-kitob. – Toshkent: O'qituvchi 2019.
3. Sa'dixon Mavlavixon o'g'li. Tanazzul.2-kitob. – Toshkent: O'qituvchi 2020.
4. Sa'dixon Mavlavixon o'g'li. Tanazzul.3-kitob. – Toshkent: O'qituvchi 2019.
5. Sa'dixon Mavlavixon o'g'li. Tanazzul.4-kitob. – Toshkent: O'qituvchi 2020.
6. Sa'dixon Mavlavixon o'g'li. Tanazzul.5-kitob. – Toshkent: O'qituvchi 2020
7. Bobobekov. H. Qo'qon tarix. – Toshkent: Fan 1996.
8. Mamanova, D. (2024). ARTISTIC PARALLELISM IN THE NOVELS "DECLINE" AND "THE SCORPION FROM THE ALTAR". *Analysis of world scientific views International Scientific Journal*, 2(1), 249-254.
9. Mamanova, D. (2024). THE PROPORTIONALITY OF THE RUSSIAN ATTACK ON THE KOKAN KHANATE TO THE HISTORICAL REALITY IN THE NOVEL OF DECLINE. *Interpretation and researches*.
10. Mamanova, D. (2024). "TANAZZUL" ROMANIDA MUSULMONQL MINGBOSHI OBRAZINING TAVSIFI. *Interpretation and researches*, (4 (26)).